SUKUTNI TILSHUNOSLIK OBYEKTI SIFATIDA O‘RGANISHGA QARATILGAN YONDASHUVLAR

Sobirova Feruza Asqarali qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
O‘zbek tili fani o‘qituvchisi
fayzulloyusufjonov430@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda sukut fenomenining tadqiq etilish yo‘nalishlari hamda uning kommunikativ-pragmatik mohiyati yoritiladi. Unda sukutning pragmalingvistik, diskursiv, lingvokulturologik va psixolingvistik aspektlari tahlil qilinib, nutq jarayonidagi funksional xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqotda sukut nutqning oddiy yo‘qligi sifatida emas, balki muayyan kommunikativ ma’no va vazifani ifodalovchi faol birlik sifatida talqin etiladi. Shuningdek, turli madaniy muhitlarda sukutning qabul qilinishi hamda uning kommunikativ funksiyalaridagi o‘ziga xosliklar ko‘rib chiqiladi. A.Javorski, D.Kurzon, T.P.Kopilova va J.V.Jensen kabi olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda sukut fenomenining nazariy asoslari tahlil etiladi. Maqolada sukutning diskursni tashkil etish, implitsit ma’nolarni yuzaga chiqarish va kommunikativ munosabatlarni muvofiqlashtirishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: sukut, pragmalingvistika, kommunikatsiya, noverbal vosita, diskurs, lingvokulturologiya, psixolingvistika, kommunikativ-pragmatik yondashuv, implitsit ma’no, dialogik muloqot, nutqiy faoliyat, madaniyatlararo kommunikatsiya.

Kirish

Tilshunoslik fani bugungi kunda tilning barcha sohalarida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda.Tilda bir qator yangi yo‘nalishlarning maydonga kelishi (matn tilshunosligi, kompyuter lingvistikasi, psixolingvistika, matematik lingvistika, sotsolingvistika va boshq.) va ularni tadqiq etish bilan bog‘liq holda yaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ko‘lami ham bundan dalolatdir. Sukut tilshunoslikning o‘rganish obyekti sanalib, turli yo‘nalishlarda tadqiq etib kelinmoqda: kommunikativ, psixologik, diniy-mistik, estetik, kulturologik, etnografik.

Sukut so‘zni o‘rab turgan juda ko‘p assotsiatsiyalarni keltirib chiqarganligi sababli, har biri dunyoning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan turli madaniyatlarda so‘z atrofidagi assotsiativ makonning mazmuni turlicha bo‘lib tuyuladi. Inson dunyoqarashi ma’lum darajada til bilan namoyon bo‘ladi, shuning uchun ongning noverbal qismi lisoniy komponentlar bilan bog‘lanib, boshqa tillardagi o‘xshash tuzilmalardan butunlay farq qiluvchi struktura hosil qiladi.

Tilshunoslikka oid yozuvlarda odatda tadqiqot obyekti fanning barcha yo‘nalishlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi va u qaysi sohaga ko‘proq tegishli ekani aniqlanadi. Biroq **sukut**ni tilshunoslikning faqat bitta yo‘nalishi doirasida chegaralab bo‘lmaydi. U til qo‘llanishining turli darajalarini qamrab oladi va individual shaxslar hamda butun jamiyat hayotini boshqaruvchi ijtimoiy, siyosiy va emotsional jihatlar bilan bog‘liqdir1

Tilshunoslikda sukut hodisasi uzoq vaqt davomida faqat nutqning yo‘qligi deb tushunilgan bo’lsa-da, zamonaviy tilshunoslikka oid tadqiqotlar uni kommunikativ jarayonning faol va ma’noli elementi sifatida qaraydi. Shu nuqtayi nazardan, sukutni tahlil qilish turli lingvistik yondashuvlar kesishmasida amalga oshiriladi. Xususan, pragmatik, lingvokulturologik, psixolingvistik va sotsiolingvistik, psixofiziologik yondashuvlar sukutning turli funksional va strukturaviy jihatlarini yoritishda asosiy ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1 M.Saville-Troike (Eds.), Perspectives on silence (pp. 3–18). Norwood, NJ: Ablex.

“Sukut serqirra hodisa bo‘lganligi uchun ham qadimdan falsafa, ilohiyot, madaniyatshunoslik, ma’naviyatshunoslik, psixologiya, semiotika, tilshunoslik kabi sohalarda o‘ziga xos tarzda o‘rganilgan bo‘lsa, hozirda o‘zaro integratsiyaga asoslangan lingvofilosofiya, lingvoetnografiya, lingvopsixologiya, lingvokulturo logiya, lingvoma’naviyatshunoslik, shuningdek, amaliy tilshunoslik fanlarining tadqiq obyektiga aylangan.”2

Tilga antropotsentrik yondashuv tilning asosiy vazifasi bo‘lmish aloqa-aralashuvning yuzaga chiqishida kommunikantlarning mavqeyi yuqori ekanini yana bir bor e’tirof etdi. Muloqotning ro‘yobga chiqishi adresant va adresatning o‘zaro fikr almashinuvi natijasi sanalib, aloqa-aralashuv lisoniy yoki nolisoniy yo‘l bilan amalga oshishi mumkin. Sh.Safarov: “Hozirgi paytda tilshunoslikning insoniy-antropologik fan ekanligini inkor etishga hech kim jur’at eta olmasa kerak”,3 – degan xulosaga keladi.

N.B.Kornilovaning ta’kidlashicha, turli madaniyatlar ob’ektiv ravishda sukutga turlicha munosabatda bo‘lishadi. Masalan, Sharq madaniyatlari ma’nolarni intim, intuitiv (irratsional) tushunishga moyildirlar, shuning uchun bunday madaniyatlarda sukut og‘zaki muloqotning hissiy o‘rnini bosmaydi, odamlarning bir-biriga yaqinligining ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin xolos. G‘arb odamlari uchun ham xuddi shunday, lekin kommunikativ norma, bo‘sh gap yoki so‘z talaffuzining yo‘qligi, behuda tinimsiz suhbat mavjud.4

Dialogik yoki polilogik muloqot sharoitida sukut axloqiy me’yorlar, xulq-atvor qoidalari va mavjud din bilan chambarchas bog‘liq. Xitoy faylasufi

2Yuldasheva .D.N.Sukut diskursning tarkibiy qismi sifatida. DcS ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.Buxoro-2023-16 b

3 Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – 28 б.

4 Kornilova N. B. Silence and Culture.

Konfutsiy shunday degan edi: “Jimjitlik hech qachon o‘zgarmas buyuk do‘stdir”.5 Kundalik suhbatlarda, ish uchrashuvlarida sukut uchrab turadi.

Turli madaniyatlarda sukunatdan foydalanish kontekstidagi farq, uning sabablari va funktsiyalari ko‘pincha turli millat vakillari o‘rtasida tushunmovchilikni keltirib chiqaradi. Bunday holda, sukunatni turli jamoalarda turli xil ma’nolarga ega bo‘lgan imo-ishora yoki jim turish bilan solishtirish mumkin.

“Insonda, – deb yozadi I.N.Gorelov, – hayotining boshlanishidanoq kommunikativ aktning verbal va noverbal vositalariga diqqat jalb etish malaka va ko‘nikmalari tarbiyalanib boradi”.6 Yuqoridagi fikr shuni anglatadiki, inson kommunikatsiya jarayonida faqat lisoniy vositalarini emas, aksincha nolisoniy ifodalarini ham kichik yoshdan o‘zlashtiradi. Shu sababli sukut ham nutqiy muloqotning asosiy va ahamiyatli tarkibiy qismi sifatida shakllanadi. U oddiy jimlik emas, balki muayyan nutqiy vaziyatda ma’lum mazmunni ifodalovchi va muomalaviy ahamiyat ifoda etuvchi vosita sifatida qaraladi.

Ma’lumki, dialogning mohiyati suhbatdoshlarning o‘zaro axborot almashuvlaridan iborat ekan, kommunikantlarning so‘zlashuv doirasidagi sukuti uzatilayotgan axborotni hazm qilish va mushohada asosida unga mos axborot uzatishdan iborat bo‘ladi. Aytish mumkinki, sukut ma’nosi ko‘p hollarda verballashgan tarzda ifoda etiladi. Bunday hollarda sukut verbal vosita orqali kuzatib boriladi yoki tasdiqlanadi, ta’kidlanadi. Keyingi yillarda kishilar o‘rtasidagi yuzma-yuz muloqotning kamayishi, axborotni imkon qadar tez uzatish maqsadida mobil aloqalardan foydalanish, pandemiya munosabati bilan aloqa-aralashuvda masofaning saqlanishi, yig‘ilishlarning onlayn shaklda o‘tkazilishi kabi sabablar noverbal vositalarning kommunikatsiyada ishlatilishiga ham o‘z ta’sirini

5 https://www.ziyouz.com/portal haqida/ xarita/ hikmatlar/ Konfutsiy hikmatlari

6 Горелов И. Н. *Невербальные компоненты коммуникации*. – Москва, 1980.

o‘tkazmay qolmaydi. Ayniqsa, sukut noverbal vositasining faolligi namoyon bo‘lmoqda. Inson o‘z fikrlarini, qarashlarini, ichki tuyg‘u va hissiyotlarini, uzatilgan axborotga yoki holatga munosabatini ko‘p hollarda sukut qilish orqali ifodalab beradiki, buni tushunish, ilg‘ab olish darkor bo‘ladi. Ma’lum ma’noda sukut qilish kommunikatsiyaning davomiyligini ta’minlovchi vosita hamdir. Bu, albatta, sukut qiluvchining psixologik holati, ijtimoiy mavqeyi, kommunikativ o‘ziga xosligi, kommunikantlarning individual munosabatlari asosiga quriladi.

Shu jihatdan olib qaralganda, aloqa-aralashuv jarayonining shakllanishida va ro‘yobga chiqishida, adresant va adresatning fikr almashinuvida “sukut” (jim turish, gapirmaslik) ham noverbal vosita sifatida ishtirok etadi. Noverbal vositalar belgi sifatida ma’lum axborotni bildirish uchun ishlatilar ekan, har qanday holat G.V.Kolshanskiy ta’biricha, “umumiy paralingvistik vositadir”.7

Pragmatika grekcha “pragmos” so‘zidan olingan bo‘lib, “ish”, “harakat” ma’nolarini beradi. Pragmatika lingvistik belgilarning nutqdagi funksional ko‘rinishini o‘rganadi. Shuning uchun tilshunoslikning bu yo‘nalishi semiotika tarmog‘laridan biri sanaladi. Pragmatika termini XIX asrning 30-yillarida Ch.I.Morris tomonidan ilmiy muomalaga olib kirilgan.8

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida o‘tgan asrning 60-70-yillarida shakllanadi.9 Lingvistik pragmatika nazariyasi xususidagidagi ilk ma’lumotlar tilshunoslik fanining yangi tarmog‘i sifatida o‘tgan asrning 60-70-yillarida boshlagan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishning paydo bo‘lishiga

7Колшанский Г.В. Паралингвистика. – М.: Наука, 1974. – С. 59

8 Ҳакимов.М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари..— Тошкент. Akademnashr.2013. 6-б

9 Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – 56 б.

g‘oyaviy turtkilar tarixi XIX asr oxiri- XX asr boshlariga borib taqaladi.10 60-70-yillarda til belgilarining nutqdagi amaliy qo‘llanishiga xos kontekstual xususiyatlarini o‘rganish bilan tilshunoslikda pragmatik yo‘nalish yuzaga chiqa boshladi. Lingvistik pragmatikaning shakllanishi yirik olim L.Vitgenshteynning falsafiy qarashlariga bog‘liq bo‘lib, aynan uning ishlarida pragmatika nazariy semiotik tadqiqotning mustaqil sohasi sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.11 Sukutni kommunikativ - pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilgan olimlar qatoriga A.Javorski, D.Kurzon, T.R.Kopilova, R.Yakobson, J.Vernon Jensen, N.D. Aryutnonova kabi olimlarni sanash mumkin.

Xulosa

Adam Javorskining “Sukutning qudrati: ijtimoiy va pragmatik yondashuvlar” nomli monografiyasi sukut hodisasini kommunikatsiyaning asosiy lingvistik va ekstralingvistik hodisa sifatida umumiy tahlil qilgan maxsus ilmiy ish hisoblanadi.

Dennis Kurzonning “Analysis of Silence in Interaction” asarida sukut zamonaviy tilshunoslikda oddiy “nutq yo‘qligi ya’ni so‘zlik” emas, aksincha kommunikativ ma’no anglatuvchi hodisa hodisa sifatida qaraladi. D.Kurzon sukutni o‘rganish 1970-yillardan keng rivojlana boshlaganini ta’kidlaydi va bu jarayonni sukutga pragmatik va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida tadqiq qiladi.

D.Kurzon sukut tadqiqotlarining rivojlanishini uch bosqichga ajratadi:

- dastlabki tadqiqotlarlar (Bruneau, Jensen, Johannesen),

10 Петров.В.В.Философия, семантика, прагматика// Новое в зарубежной лингвистика.Вып.XVI.— М., 1985.—С. 471.

11 Ахманова.О,Магидова.И.М.Прагматическая лингвистика, прагмалингвистика и лингвистическая прагматика// Вопросы языкознанияю.—М.,1978.№3. –С.44.

- 1980–1990-yillardagi kollektiv to‘plamlar (Tannen & Saville-Troike, Jaworski),
- keyingi kengaygan institutsional va madaniyatlararo tadqiqotlar.

Bu rivojlanish sukutning ilmiy ob’ekti sifatida **oddiy lingvistik birlikdan ko‘p qatlamli ijtimoiy-kommunikativ fenomen** darajasiga yetganini anglatadi..12

Zamonaviy tilshunoslikda sukut hodisasini tadqiq qilish kommunikatsiya nazariyasining muhim va asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. T.R. Kopilova sukut ustida an’anaviy qarashlardan farqli ravishda kengroq lingvistik ko‘lamda tadqiqot olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Allayorova S. Germenevtika. – Toshkent: Universitet, 2011.
3. Арутюнова Н.Д. Дискурс. – Москва: Языки русской культуры, 1990.
4. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge, 1987.
5. Leech G. Principles of Pragmatics. – London, 1983.
6. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Oxford, 2008.
7. Muminov Sidikjon Mirsobirovich, Sobirova Feruza Asqarali qizi. Sharq va G‘arb madaniyatida sukut: madaniyatlararo farqlar // *Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari.* – 2025. – №6 (A seriya). – B. 1373–1376.

12 Kurzon, D. Analysis of Silence in Interaction. In: The Encyclopedia of Applied Linguistics, 2013. 187-193/ The Encyclopedia of Applied Linguistics, Edited by Carol A. Chapelle. © 2013 Blackwell Publishing Ltd. Published 2013 by Blackwell Publishing Ltd. DOI: 10.1002/9781405198431.wbeal0027

8. Muminov S., Sobirova F. Sukutning yosh bilan bog‘liq kommunikativ xususiyatlari // *“Farg‘ona filologiya maktabi asoschisi” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (Akademik G‘anijon Abdurahmonov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan)*. – Farg‘ona: FarDU, 2025.
9. Sobirova, F.A. Sukut ifodalaydigan ma’no: til va kommunikatsiyaning noverbal aspekti // *European Science International Conference*. – B. 383–386.
10. Sobirova, F.A. Sukut va sukunatning farqi: tilshunoslik nuqtai nazaridan // *Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari.* – 2025. – №4.